



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARGA XORIJIY TILLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI

G'ulomova Bibi Muxlisa Maxmudjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti.

Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va

tarjimashunoslik fakulteti talabasi

E-mail: gulomovamuxlisa@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitish jarayonida ularning chet tili kommunikativ malakalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan

Kalit so'zlar: Kichik maktab yoshi, til o'rgatish uslubi, ilm-fan, ta'lim, ilmiy izlanish, bolalik davri

KIRISH

Mustakilligimizni muvaffaqiyatli qurilishi sharoitida, tobora o'sib borayotgan fan va texnika taraqqiyoti, mamlakatimiz iqtisodiy hamda madaniy saviasining ortishi sharoitida joriy qilingan uzluksiz ta'limning barcha tizimlaridagi yangilanishlar yo'lidan borar ekanmiz, O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, xorijiy tilda erkin so'zlasha oladigan, huquqiy ongli, mukammal inson qilib tarbiyalash hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Jismonan va ma'nan yetuk insongina jamiyat rivoji, yurt taraqqiyoti uchun sidqidildan xizmat qila oladi. O'sib kelayotgan yosh avlodning sog'lom va har tomonlama shakllanishini ta'minlash albatta, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi. Globallashtayotgan ta'lim endilikda ilm oluvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham butun dunyoda ta'lim va ilmiy izlanishlarni davom ettirish imkoniyatini yaratib bormoqda. Manbalardan bizga ma'lumki, kishilik jamiyatida insonlar bir necha tilni bilishga qiziqqanlar, unga ehtiyoj sezganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL



Darhaqiqat, xorijiy tilni egallash ta'lim, ilm-fan, iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotdagi globallashuvning yangi davri uchun asosiy kalithisoblanadi. Globallashayotgan ta'lim endilikda ilm oluvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham butun dunyoda ta'limni va ilmiy izlanishlarni davom ettirish imkoniyatini yaratib bormoqda. Bu jarayon o'rta maxsus, kasb-hunar bitiruvchilarining turli dunyoviy bilimlarni chet tillarda bilishlaridantashqari, o'z kasblari haqidagi bilimlarni ham chet tillarda davom ettirishlariga imkon yaratadi. Ma'lumki, til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan qiziqish, moyilliklar, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e'tiborga olish kerakki, kichik maktab yoshidagi bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun mazkur yosh davrida ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushunchaberishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish va qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin [1].

Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli. Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

– qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin

– aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar;

– multfilmlar; Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l [2].

rol ijro etish (role play) o'qituvchi biror ma'lumotni, masalan, hayvon yoki qushlarning nomlarini o'rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim. Misol uchun: bir o'quvchi itning vovillashi, mushukning miyovlashini ko'rsatib bersa, boshqa bir o'quvchi bu tovushlar qaysi hayvonga tegishli ekanligini bilib, uning inglizcha nomini aytishi zarur



– mavzuga oid muhit; O‘qituvchi mavzusiga qarab o‘sha muhitni yaratib bera olsa, bolalar tilni yaxshi o‘rganishadi. Masalan: traveling, birthday, in the kitchen va boshqalar. Traveling (sayohat) mavzusida o‘qituvchi sayohat uyushtirishi, sayohatga qanday vositalar orqali (foot, bicycle, automobile, train, boat, airplane) borish mumkinligi, qaerlarga sayohat qilish (Tashkent, Samarkand, Bukhara, England, USA) muhimligi haqida ma’lumot beradi. Bu ham o‘quvchilarning so‘z boyligini, til imkoniyatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini o‘stiradi.

– topishmoqlar; Bolalarda topishmoqlarning javobini topishga qiziqish kuchli. Shuning uchun o‘qituvchi topishmoqni ingliz yoki o‘zbek tilida aytganda, uning javobini bolalardan ingliz tilida aytishini talab qilishi lozim. Shunda bolalar so‘zlarni tez o‘rganishadi.

– amaliy mashg‘ulotlar (mevalar va boshqa oziq-ovqatlarni tatib ko‘rish, gullarni hidlab ko‘rish orqali o‘rganish); O‘qituvchi o‘quvchilardan ranglarning inglizcha nomini so‘rab qolsa, bola darrov meva yegan paytini eslaydi, qizil- red, yashil-green ekanligini tez xotirlaydi. Demak, bunday usuldan foydalanish o‘quvchining ma’lumotni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishini ta’minlaydi

- imo-ishoralar, yuz ifodalari orqali; O‘qituvchi bolaga biror gapni gapirganda yoki buyruq berganda, masalan, bu yoqqa kel (come here), kitobni och (open the book), turing (stund up), doskaga qarang (look at the blackboard) kabi gaplarda imo-ishoralardan foydalansa bolaga tushunarli bo‘ladi [3].

– ko‘rgazmali qurollar, plakatlar, kitoblar orqali;

– ko‘zga ko‘rinadigan va kundalik hayotda ko‘p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish.

– yangiliklar orqali; bilamizki, bolalar qiziquvchan. Ular bir xillikdantez zerikadi. Shuning uchun ularga har doim bir turdagi usullardan foydalanib dars o‘tish emas, balki bunday usullarni o‘zgartirib, yangilab dars o‘tish lozim. Aks holda bolalar o‘qituvchining qanday dars o‘tishini fahmlab olishadi va bunga tayyorgarlik ko‘rishadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilganda, boshqa tillarni bilish, o‘rganish hech qachon o‘z ona tilini kamsitish, esdan chiqarish, unutish hisobiga bo‘lmaydi. O‘z tilini mukammal bilgani va hurmat qilgani holda boshqa tillarni bilish va o‘rganish, ko‘p til bilish maqsadga muvofiq ekanligini unutmaslik kerak. Ana shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, boshqa tillarni



o‘rganishga da’vat, avvalo, o‘z ona tilini ham bilishga, shu bilan birga, shu asosda, boshqa tillarga ham hurmatni shakllantirish, o‘rganishni yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. J.Jalolov. “Chet tili o‘qitish metodikasi”. T.O‘qituvchi.2016y.
2. Sh. Nurmonov. Sh. Iskandarova . Tilshunoslik nazariyasi. T., «Fan», 2018, 75-76-betlar
3. S. Ismoilova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga morfemani o‘rgatish. Morfemaka, so‘z yasalishi va uni o‘qitish muammolariga bag‘ishlangan an’anaviy konferensiya materiallari. Andijon. 2010. 48-b.
4. Rashidov Dilovar Najmiddinovich. (2023). increase jobs for transport companies in uzbekistan by increasing the purchase of products manufactured by people with disabilities. American Journal of Business Management, Economics and Banking, 12, 128–130. Retrieved from <https://americanjournal.org/index.php/ajbmeb/article/view/854>

